

FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1-may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlar soni (2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

50 752

111,2 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

48 083

110,1 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022- yilda)


2874

97,3 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'iga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1- may holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil yanvar-aprel oyida)





Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(2022-yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

6




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,0** foizga oshdi



Dehqonchilik, chorvachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish

O'rmon xo'jaligi

Baliqchilik xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonasi va
tashkilotlarning
umumiyligi o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan 7,0 foizga
oshdi*



■ Kichik korxonalar ■ Mikrofirmalar ■ Kichik tadbirkorlik subyektlari




2022-yil 1-may holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 10,2 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,0 %ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili-(o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 106,8 %ga (jami sanoatdagi ulushi 95,8 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 109,0 %ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 131,8 %ga (jami sanoatdagi ulushi 0,9 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 100,8 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

9



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,5** foizga oshdi



Kichik tadbirdorlik subyektlari soni




18,4
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



23,8
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




27,0
foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan
24,2 foizga oshdi



Xususiy korxonalar




7,3
foizga oshdi




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

10



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

1033



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

55



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

71



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



173 yashash
bo'yicha xizmatlar




2 447
Oziq-ovqat mahsulotlari
va ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar

2022-yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,6 %ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 114,1 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,4 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 122,7 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,6 %) o'sishidir.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2022-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

13



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Mikrofirmalar

Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


Oilaviy korxonalar




6,4
foizga oshdi





Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2022-yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022-yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (2022-yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022-yilning 1-may holatiga ko'ra 6,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 804 taga yoki 114,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5,9 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 644 taga yoki 112,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 445 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25 taga yoki 94,7 %ga kamaygan.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2022-yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- may holatiga ko'ra 25,1 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,0 mingtaga yoki 118,6 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 24,1 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,6 mingtaga yoki 117,6 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022-yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1857 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20 taga yoki 98,9 %ga kamayganni ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022-yil 1-may holatiga ko'ra 561 tani tashkil etib, ulardan 552 tasi yoki 101,6 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 78 taga yoki 116,5 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022-yilning yanvar-may oylarida viloyatimizda 17 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yargi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)



Farg'ona viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022-yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)


18

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Belorussiya Respublikasi	6	3	3
Ozarbayjon Respublikasi	7	3	4
Qirg'iziston Respublikasi	28	19	9
Qozog'iston Respublikasi	12	10	2
Rossiya Federatsiyasi	99	70	29
Tojikiston Respublikasi	10	6	4
Ukraina Respublikasi	3	2	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022-yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

19



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Jami	218	327	429	474	552
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4	19	28	26	29
Sanoat	155	192	243	264	292
Qurilish	5	7	12	19	28
Savdo	25	57	75	91	113
Tashish va saqlash	4	7	12	13	15
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9	14	15	13	14
Axborot va aloqa	2	4	4	4	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	7	10	9	10
Boshqa turlar	9	20	30	35	46

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

20




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

21

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Farg'ona viloyati	552	356	196
Oltiariq tumani	24	17	7
Qo'shtepa tumani	9	8	1
Bag'dod tumani	16	12	4
Buvayda tumani	11	8	3
Beshariq tumani	12	5	7
Quva tumani	22	13	9
Uchko'prik tumani	22	14	8
Rishton tumani	11	8	3
So'x tumani	8	7	1
Toshloq tumani	19	12	7
O'zbekiston tumani	28	24	4
Farg'ona tumani	28	18	10
Dang'ara tumani	17	9	8
Furqat tumani	9	7	2
Yozyovon tumani	6	1	5
Farg'ona shahar	171	101	70
Qo'qon shahar	75	41	34
Quvasoy shahar	34	27	7
Marg'ilon shahar	30	24	6

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2022-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

22



2022-yil 1-may holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (16,5 %), Qo'qon shahar (11,7 %), Marg'ilon shahar (9,0 %), Uchko'prik tumani (5,0 %), Dang'ara tumani (4,9 %), Oltiariq tumani (4,9 %), Quva tumani (4,8 %), O'zbekiston tumani (4,8 %), Buvayda tumani (4,7 %), Toshloq tumani (4,5 %), Farg'ona tumani (4,1 %), Bag'dod tumani (3,8 %), Rishton tumani (3,7 %), Beshariq tumani (3,5 %), Quvasoy shahar (3,4 %), Qo'shtepa tumani (3,2 %), Furqat tumani (2,6 %), So'x tumani (2,4 %), Yozyovon tumani (2,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2022-yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)


2022- yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (15,7 %), Qo'qon shahar (9,3 %), Marg'ilon shahar (5,9 %), Toshloq tumani (5,7 %), Oltiariq tumani (5,3 %), Dang'ara tumani (5,2 %), O'zbekiston tumani (4,9 %), Buvayda tumani (4,7 %), Farg'ona tumani (4,6 %), Rishton tumani (4,6 %), Beshariq tumani (4,6 %), Quva tumani (4,4 %), Bag'dod tumani (4,2 %), Qo'shtepa tumani (3,9 %), Quvasoy shahar (3,9 %), Uchko'prik tumani (3,9 %), Furqat tumani (3,2 %), Yozyovon tumani (2,1 %), So'x tumani (2,9 %), hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2022-yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

23



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022-yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy
korxonalarga taqsimlanishi**

(2022-yil 1- may holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)

24



2017-2021-yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish etib belgilangan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnama tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'ona viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:73 244-65-76**